



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

ABDULLA QODIRIY NASRINING JANR XUSUSIYATLARI VA O'ZBEK ROMANCHILIGI SHAKLLANISHI

Mirzayeva Nargiza Abdukaxarovna

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, dotsent

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Abdulla Qodiriy ijodining milliy adabiyot taraqqiyotidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Adibning badiiy va publitsistik merosi, xususan, roman, hikoya, ocherk, drama hamda hajviy asarlari o'zbek adabiyotining yangi bosqichga ko'tarilishida muhim ahamiyat kasb etgani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Abdulla Qodiriyning publitsistik faoliyati, matbuotdagi chiqishlari va hajviy asarlarida o'sha davr ijtimoiy-madaniy muhitining aks etishi masalalari tahlil qilinadi. Maqolada yozuvchining "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari hamda boshqa badiiy asarlari misolida uning badiiy mahorati, milliy romanchilik maktabini shakllantirishdagi roli va adabiy jarayonga ko'rsatgan ta'siri yoritiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek adabiyoti taraqqiyotida muhim bosqichni tashkil etgani va milliy badiiy tafakkurning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan aniq qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, o'zbek adabiyoti, o'zbek romanchiligi, badiiy nasr, publitsistika, hajviy asarlar, milliy uyg'onish, jadidchilik, badiiy tafakkur, adabiy jarayon.

ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЗЫ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ И ФОРМИРОВАНИЕ УЗБЕКСКОГО РОМАНА

Мирзаева Наргиза Абдукахаровна

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, доцент

Аннотация

В данной статье с научной точки зрения анализируется роль творчества одного из выдающихся представителей узбекской литературы Абдуллы Кадыри в развитии национальной литературы. Показано, что художественное и публицистическое наследие писателя, в частности его романы, рассказы, очерки, драматические и сатирические произведения, сыграли важную роль в выведении узбекской литературы на новый этап развития. Также рассматриваются публицистическая деятельность Абдуллы Кадыри, его выступления в печати и отражение социально-культурной среды того времени в его сатирических произведениях. На примере романов писателя «Минувшие дни» (O'tkan kunlar), «Скорпион из михраба» (Mehrobdan chayon) и других художественных произведений раскрываются его художественное мастерство, роль в формировании национальной школы узбекского романа и влияние на литературный процесс. Результаты исследования показывают, что творчество Абдуллы Кадыри стало важным этапом в развитии узбекской литературы и внесло значительный вклад в развитие национального художественного мышления.

Ключевые слова: Абдулла Кадыри, узбекская литература, узбекский роман, художественная проза, публицистика, сатирические произведения, национальное возрождение, джадидизм, художественное мышление, литературный процесс.

GENRE FEATURES OF ABDULLA QODIRIY'S PROSE AND THE FORMATION OF UZBEK NOVEL WRITING

Mirzayeva Nargiza Abdukaxarovna

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Associate Professor

Abstract

This article provides a scientific analysis of the role of the works of Abdulla Qodiriy, one of the prominent representatives of Uzbek literature, in the development of national literature. It demonstrates that the writer's artistic and journalistic heritage, particularly his novels, short stories, essays, dramas, and satirical works, played a significant role in elevating Uzbek literature to a new stage of development. The article also examines Abdulla Qodiriy's journalistic activities, his publications in the press, and the reflection of the socio-cultural environment of the period in his satirical writings. Through the analysis of the writer's novels "O'tkan kunlar" and "Mehrobdan chayon", as well as other literary works, the article highlights his artistic mastery, his role in shaping the national school of Uzbek novel writing, and his influence on the literary process. The results of the study indicate that Abdulla Qodiriy's creative legacy represents an important stage in the development of Uzbek literature and has made a significant contribution to the growth of national artistic thinking.

Keywords: Abdulla Qodiriy, uzbek literature, uzbek novel writing, artistic prose, journalism, satirical works, national awakening, jadidism, artistic thinking, literary process.

XX asr xalqimiz tarixida o'zlikni anglash, milliy uyg'onish davri bo'ldi. "Jadidchilik harakati" nomi bilan tarixga kirgan bu jarayon xalqimiz ma'naviy hayotining hamma jabhalarini qamrab oldi. Badiiy adabiyot va madaniy hayotda tom ma'noda yangilanish jarayoni kechdi. O'tgan asrning 10-yillarida Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarqush" asari, Abdurauf Fitratning "Munozara", "Bayonoti sayyohi hindi" asarlari badiiy adabiyotda buyuk o'zgarish yasagan edi. Abdulla Qodiriy mana shunday badiiy ijodda tub o'zgarishlar kechayotgan bir davrda adabiyotga kirib keldi.

Abdulla Qodiriy ijodkor sifatida o'z adabiy faoliyatini she'riyatdan boshladi, uning "To'y", "Millatimga", "Fikr aylag'il", "Ahvolimiz" kabi she'rlari shu davr mahsulidir. Oradan ko'p o'tmay uning "Baxtsiz kuyov" dramasi, "Juvonboz", "Uloqda" hikoyalari kitobxonlar qo'liga borib tegdi.

Abdulla Qodiriyning tom ma'nodagi jurnalistik faoliyati 1917-yil fevral inqilobidan keyingi davrga borib taqaladi. Shu davrdan boshlab uning matbuotda maqolalari, felyetonlari, hajviyalari, ochiq xatlari chiqqan boshladi: "Shodmarg (Kichik feletun)", "Ishtirokiyun" 1917-yil, 21-mart, "Saylovmi, Bosqunlikmi kaykan", "Ulug' Turkiston" 1917-yil avgust.[10;49]

1919-yildan boshlab Oziq qo'mitasi organi "Oziq ishlari" gazetasida muharrir bo'lib ishlaydi. Bu davrda u "Inqilob" va "Kommunist yo'ldoshi" jurnallarida mas'ul kotib, jurnalist-publitsist sifatida faoliyat ko'rsatadi. 1923-yilda "Mushtum" jurnalining tashkil etilishi ham bevosita Abdulla Qodiriy va G'ozini Yunus (Yunusov G'ozini olim - 1893-1939) faoliyati bilan uzviy bog'lanadi. Bu haqda Qodiriy quyidagilarni yozadi: "23-yilning fevral oyida, shekilli, "Turkiston" gazetasiga o'rtoq Abdulhay Toji muharrir belgilanadi va shu o'rtoq bir kulgi jurnali chiqaringiz, deb men bilan G'ozini chaqirdi. (Bu vaqtda G'ozini gazetasining muharriri edi). Biz ikkovimiz ishga kirishdik-da, natijada sakkiz soncha "Mushtum" chiqdi". [13;403]

Abdulla Qodiriyning "Mushtum" jurnalini tashkil etilishi va Moskvaga o'qishga ketgunigacha, ya'ni 1924-yilgacha matbuotda ko'plab chiqishlar qiladi. Quyida ularning ayrimlarini ko'rib, tahlilini keltiramiz va albatta, birinchi bo'lib felyetonlariga murojaat qilamiz. "Dumbasi tushib qolgan emish. Kichkina feletun. "Eski shahar oziq sho'basiga bag'ishlayman" ("Ishtirokiyun" 1919-yil avgust.)[10;36] Ushbu felyeton orqali o'sha davr Oziq qo'mitasining faoliyatini hajv orqali yoritadi. Go'sht mahsulotiga bo'lgan talabni, narxi va fuqoroning ahvolini anchadan beri go'sht yemay yurgan, "go'shtsirab ketgan" obraz yordamida, achchiq kinoyalar

bilan ifodalaydi. “Komitet qo‘yining dumbasi tushib qolgan” [10;58] deb xalqqa tarqatilayotgan go‘shning ahvolini tasvirlaydi.

“Bozor surishtirmaydir (kichkina felyeton)”. “Ishtirokiyun” 1920-yil 16-aprel [10;70]. Bu felyeton orqali jurnalist xalq ahvoli haqida ayniqsa, o‘sha davr madaniy hayotining muhim jihati bo‘lgan teatr san‘ati, teatr tanqidchiligini yoritishga harakat qiladi. Bundan tashqari, etikchi kosib tilidan yaroqsiz mahsulotga nisbatan: Xayf bo‘lmasin, bozor surishtirmaydir” jumlasining berilishi o‘sha vaqtda hech kim o‘z ishi bilan shug‘ullanmaytgani, natijada ishlar “o‘lda-jo‘lda”, mahsulot sifatsiz ekanligi tasvirlanadi.

“Nega kim” (Kichkina feleto‘n). Elbekga bag‘ishlab. “Ishtirokiyun” 1920-yil 8-may[10;72].

Bu chiqishi orqali Abdulla Qodiriy Elbek, Xamza, N.To‘raqulovlar bilan bog‘liq ba‘zi ma‘lumotlarni berib o‘tadi. Ayniqsa To‘raqulovning matbuotdagi chiqishlarini keskin tanqid qiladi. Bundan tashqari gazeta faoliyati va zamon nozikligini quyidagicha tasvirlaydi.

“Ishtirokiyun” gazetasi necha bir kun chiqib, bir kun oqsay boshladi? -Negakim, xarf teruvchi xizmatlarini hukumat ortiqcha to‘ydirib, qorin soldirg‘ani uchun”

“Nega so‘zini shu yerda to‘xtatmoqchi bo‘lasan?”

-“Negakim bundan ortiqni zamon ko‘tarmagani uchun!”

Bundan tashqari “Kula-kula o‘lasan”, “Ijmoli sayosiy”, “Azob bog‘chasidayig‘i- sig‘i kechasi”, “Qazoyi osmonitlar”, “Qurbonlik o‘g‘rilari”, “Mochalov”, “Layli va Majnun”, “Past-u baland dunyoda”, “Huquq” [10;137] kabi felyetonlarida jamiyatdagi muammolar, insonlarning huquqsizligi jamiyat peshvolarining faoliyati, ijtimoiy-madaniy hayotdagi o‘zgarish va keskinliklarini tasvirlaydi.

Abdulla Qodiriyning munaqqid, beayov hajvchi ham bo‘lganligini uning 1923-1926-yillari yozgan maqola, felyeton va hajviyalaridan bilish mumkin. Adibning publitsistik mahorati aynan 1920-yillari kamol topgan, bugun biz to‘lqinlanib o‘qiydigan hajviyalari ham o‘sha yillari matbuot yuzini ko‘rgan edi. Yozuvchi haqidagi xotiralarda aytilishicha, o‘z davrida odamlar uning har bir yangi asarini intiqlik bilan kutar ekan. Masalan, Qodiriyga zamondosh shoir Toshqin (Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘li) xotiralarida yozilishicha, Julqunboyning asari "bosilib, do‘konlarga chikishi bilan ming-ming o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz va tatarlar navbatga tizilishar" [5;181] ekan. Bunday shuhratni unga o‘sha ikki yirik asari keltirgan, desak ham bo‘ladi. Ammo, o‘ylashimizcha, "O‘tkan kunlar" (1926-yili to‘liq chop etib bo‘lingan) va "Mehrobdan chayon" (1928-yili kitob holida nashr qilingan) asarlari to‘liq yetib borgunga qadar ham Julqunboy nomi xalq orasida mashhur bo‘lgan.

Abdulla Qodiriyning 1924-yilgacha, ya‘ni Moskvaga o‘qishga ketgunigacha yozilgan aksariyat maqola va hangomalarida o‘sha davr butun bo‘y basti bilan namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, o‘z millatining ma‘rifatsizligi, ilm-ma‘rifatga qiziqmasligi ijodkorni bu mavzuga qayta va qayta murojaat qilishga majbur qiladi: “Qiroatxonalarimiz”, “Tilxat”, “Ikki og‘iz tariqatdan ham bo‘lsin”, “Chuvi chiqdi”, “Solnoma”, “Ma‘orif sho‘rosi diqqatiga”, “Bizda teatru ishining borishi” (Teatru va muzika), “Eski kitoblar savdosini qo‘lga olaylik”, “Tarbiya ishlariga diqqat”[10;45]. Jurnalist-publitsistning “Toshkent xabarlar”[10;60] va “Bildirishlar”[10;97] maqolalarida esa o‘sha davrning siyosiy o‘yinlari, ishchi va mehnatkashlarning ahvoli, savdo-sotiq va xalqning murakkab ahvoli kuchli hajv orqali ifodalanadi.

Abdulla Qodiriy 1924-yilning yozida Moskvaga ketadi va Valeriy Bryusov nomidagi jurnalistlar institutiga o‘qiydi, ammo Respublika matbuoti, xususan “Mushtum” jurnali bilan aloqasini uzmaydi.

Abdulla Qodiriyning “Moskvadan” turkumi ostida bir qancha hajviy maqolalari, xatlari e‘lon qilinadi. 1925-yilda yozuvchining “Mushtum” nomli ancha jiddiy tanqidiy maqolasi “Qizil O‘zbekiston” gazetasida bosiladi. Maqolada jurnalning o‘sha kezlardagi faoliyati, istiqboli ancha chuqur tahlil qilinadi, “Mushtum” jamoasining yanada faolroq bo‘lishiga da‘vat etadi.

1923-1926-yillar davomida "Mushtum" jurnalining qiyofasini belgilovchi, hajviy qissa janrining yetuk namunalari e'lon qilinadi. "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" hajviy qissasi jurnalning "Mushtumning bordi-keldisi" rubrikasi ostida 21-sonda davomli nashr etiladi. Asar qahramoni haqiqiy hayotdan butunlay uzilgan, xurofotdan boshqa narsani ko'ra olmaydigan mahalla masjidi imomi Kalvakning kulguli sarguzashtlari, tug'ilishidan boshlab boshdan kechirgan voqea – hodisalar hikoya qilinadi. Kalvak Maxzum – taraqqiyot dushmani. Har qanday o'zgarishlarga qarshi bir odam. Uni jamiyat allaqachon chiqindi sifatida uloqtirib tashlagan. U shu darajada mutaasibki, ruhoniylarini ham yo'lchitib o'rgangan emas. U shu darajada taraqqiyotdan orqada qolib ketganki, sho'rolar maktabida o'qiyotgan yosh qizchalarning maktabga ochiq borishi-yu ularning kiyinishi unga buzuvchilik, g'ayri shar'iy ko'rinadi. U o'z so'zlari, savollari bilan o'z ruhiy olamini namoyish qiladi.

Kalvak Maxzum realistik hajviy obraz bo'lib, ana shu jihati bilan alohida ajralib turadi. U ham kulguli ham fojeali obrazdir.

Ijodkorning "Toshpo'lat tajang nima deydi?" hajviy turkumida o'ziga xos voqea tasvirlanadi. Unda o'z davrining yangi bir ijtimoiy tabaqasi jaholat va qoloqlik muhiti yaratgan chapanilar ustidan kulgu ustuvordir. Faqat chapani – takasaltanglar ustidagina emas, ularning hattiharakatlari, so'zlashuv va imo-ishoralari orqali nopob boylaru bayonlar, hokim-u hakamlar ustidan ham ayovsiz kulgu, faqat kulguning o'zigina emas, ayovsiz masharalash maqsadlari ilgari suriladi.

Uning "Mushtum", "Inqilob" jurnallari, "Ishtirokiyun", "Qizil bayroq" gazetalariida chiqqan hajviy asarlari, tanqidiy maqolalari nimasi bilan xalqqa yoqar edi? Mutolaa qilganimizda guvoh bo'ldikki, mazkur nashrlarda Julqunboy, Ovsar, Shilg'ay, Dumbul (Qodiriy tahalluslari) imzolari bilan yozilgan birorta asar yo'qki, unda kulgi, tanqid va yo bittagina bo'lsa-da, qalampirta'm so'z, qochirim ibora topilmasa! Xalq tilida bo'lgan va bo'lmagan (ya'ni, faqat Qodiriyga xos) g'aroyib jumlar, tesha tegmagan iboralar, maqol va matallar bu jazzi asarlarga yanada jozibadorlik bag'ishlagan deyish mumkin. Ajabtovurligi shuki, siz bizning og'zimizdan chiqsa ot hurkadigan "kalomi muborak" - so'kish va hakorat so'zlari ham, Ovsar yo Dumbul felyetonlarida o'zining dag'al ma'nosini andak o'zgartirgandek, qulog'ingizga yoqimli eshitiladi. Masalan, "qornini yorg'anda alif o'rniga loqal kaltak chiqmayturg'an dardisar" deb ta'riflaydi yozuvchi "Eshonlarimiz" sarlavhali felyetonida bir qahramonini [10;183]. Uning savodsiz bir nodon ekanligini bu qadar obrazli tasvirlash uchun uncha-muncha qalam ojizlik qilgan bo'lur edi...

1924-yili "Maskov xatlari" turkum xatlarining birida Turkistonda chiqayotgan gazetalarni tahlil qilar ekan, ruscha "skidka" so'zini o'zbekcha maqolada "guzasht" (tojikcha so'z) deb ishlatgan muallifni Julqunboy shunday "chaqib" oladi: "Skidka"ni "guzasht" deydir, "chegirish" degan bilan tili kesilib qoladir..."

Bir vaqtning o'zida ko'p ishlarga unmaydigan bir zamondoshi qiyofasini "Olti yillik bazm" maqolasida shunday chizadi:

"To'rt tomonga yugurib tili bir yarim qarich osilgan; bir ko'zi Mag'ribda, bir ko'zi Mashriqda; serharakatu bebarakat..."

"G'idi-bidi gaplar" hajviyasida bir so'fi haqida: "Ko'zining yoshidan soqolig'a marvarid munchoq osibdir" [10;191], deb yozadi.

Umuman olganda, Abdulla Qodiriy badiiy nasrining deyarli hamma janrlarida ijod qilgan va o'zbek adabiyotidagi ocherk, hikoya, qissa va roman janrlarining bir qancha yetuk namunalarni yaratgan. Xususan adibning "G'irvonlik Mallaboy aka" ocherkida ijtimoiy muhit, shartsharoit o'zgarishi bilan inson ongi va ruhiyatida sodir bo'lgan o'sish-o'zgarish, evrilishlar haqqoniy aks ettirilgan. Ocherkda tasvirlanishicha, o'tmishda o'zgalarning soddaligi, teran fikr yurita olmasligi bilan mashhur bo'lgan G'irvonlik dehqonlar vaqti kelib paxtachilikni mashinalashtirishga doir yangiliklar kashfiyotlar darajasigacha ko'taradilar.

Ocherkda paxtachilikdagi "shoxmot usuli" ning ixtirochisi g'irvonlik dehqon Mallaboy

aka obrazi juda jonli va tabiiy berilgan. Ijodkor paxta maydonida fidokorona mehnat qilib, o'lkamizda dong taratgan, katta obro'ga erishgan yangi tipdagi dehqon Mallaboy Boqiyev obrazini samimiy hurmat bilan yaratadi. Bu ocherki bilan ijodkor millatning eski usullardan voz kechishga, kashfiyotlar yaratishga chaqiradi. Dehqonning oddiygina hayoti, mehnati asnosida ijodkorning yuksak g'oyalari beriladi.

Umuman olganda, Abdulla Qodiriy badiiy adabiyotning aksariyat janrlarida ijod qildi: Adib she'riyati haqida to'xtaladigan bo'lsak, yuqorida aytib o'tdik, adib ijodini she'riyatdan boshlagan. Uning "To'y", "Millatimga", "Fikr aylag'il", "Ahvolimiz" kabi she'rlaridan tashqari roman va hajviy asarlarida yaratilgan she'rlari ham mavjud. Bu she'rlar tasvirlanayotgan qahramonning ruhiy holatidan kelib chiqib yaratilgan – Anvar va Ra'no kabi obrazlar nutqidagi she'rlarda tom ma'nodagi she'riyat namoyon bo'lsa, hajviyalaridagi she'rlarda esa hajv va yumor muhim hisoblanadi, jamiyat va turmushdagi kamchilik va nuqsonlar kulgu orqali tasvirlanadi ("Pildir-pis", Toshpo'lat tajang nima deydi?", "Kalvak Maxzumning xatora daftaridan", "Nafsi shayton", "Maskov xatlari III", "Sakkiz yil" [10;186]).

Abdulla Qodiriy sho'irgina emas, dramaturg sifatida ham qalam tebratdi. "1913-yillarda sahnalashtirilgan "Padarkush" pyesasi ta'sirida – deb yozadi o'z tarjimaiy holida- "Baxtsiz kuyov" degan teatr kitobini yozib yuborg'animni o'zim ham payqamay qoldim" [11;206]. "Baxtsiz kuyov" adibning drama sohasidagi yagona asari deb qayd etilsa ham "Hech kim bilmasin" degan bir pardali komediya asari ham Abdulla Qodiriyga nisbat beriladi. Bu haqda "Qizil bayroq" gazetasining 1921-yil 17-sentyabr sonida xabar berilgan: "...10-sentyabr yozliq "Turon" sahnasida "Hech kim bilmasin" (Julqunboy asari) o'ynaldi" [12;32].

Abdulla Qodiriy 30-yillardagi murakkab sharoitda ham badiiy ijodni davom ettirdi. 1934-yil qishloq hayotidan "Obid ketmon" qissasini yozdi. Qissadagi Obid obrazi o'zbek adabiyotidagi noyob hodisa. Qissada o'zbek dehqoni, ayniqsa, o'rta hol dehqonlar ruhiyatini to'laqonli tasvirllovchi obrazlar yaratdi. Uni o'zbek xalqining mehnat, dehqonchilik, madaniyati bobidagi yetukligi timsoli, deyish mumkin.

Yozuvchi inson shaxsiga yondashishda o'sha davrda odat tusiga kirgan tor "sinfiylik" doirasidan ancha chetga chiqib umuminsoniy qadriyatlarni asrash, ardoqlash yo'lidan boradi. Adib xolis turib kollektivlashtirish harakatining bir qancha tomonlarini haqqoniy ko'rsatadi. Abdulla Qodiriy asarlar yozish bilan bir qatorda zukko tilshunos, zabardast tarjimon sifatida ham katta ishlar qiladi. Adib fizik olimi Abdulla Shunosiyning "Fizika" (1928), N.V. Gogolning "Uylanish" asarini (1935), A.P. Chexovning "Buqalamun" (1936) asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi. N.V. Gogolning "Uylanish" asari tarjimasi o'sha yili Hamza nomli teatr sahnasida sahnalashtirildi. Qozonda nashr etilgan "To'la ruscha-o'zbekcha lug'at"ni (1934) tuzishda ishtirok etgan. Abdulla Qodiriyning asarlari, jumladan romanlari jahon miqyosida tez tarqaldi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, rus, ozarbayjon, latish, litva, tatar, turkman, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, arab, italiyan, ingliz, turk va boshqa tillarga tarjima qilinib qayta-qayta nashr etib kelinmoqda. Abdulla Qodiriy "Amir Umarxonning kanizi", "Namoz o'g'ri" kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgan. "Amir Umarxonning kanizi", "Namoz o'g'ri" romanlari uchun materiallar ham yiqqan. Biroq mustabid tuzum adibning bu orzularini ruyobga chiqarishga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1926-yilda "Mushtum"da bosilgan "Yig'indi gaplar" maqolasi tufayli qisqa muddat hibsga olingan. Bu maqola hajv tariqasida yozilgan bo'lib, unda bir necha kishilar, arbob kimsalar haziltomuz tanqid qilib o'tiladi. Hajviyasidagi tanqidiy mulohazalari uchun "aksilinqilobiy harakat qilinganlik" deb ayblanib hibsga olingan. Adibning tarixiy romanlari millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yozilganligi ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo'lib chiqdi. Yaratilgan bu romanlar sho'ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot-bot qoralandi. 30-yillarning o'rtalariga kelib, bu mash'um ulfatlar (kompaniya) avjiga chiqdi.

Bugungi kunda hozirgi o'zbek nasri mazmun va janrlar jihatidan nihoyatda yuksaklikka erishdi. Bularning hammasida Abdulla Qodiriy ijodining ahamiyati, Qodiriy nasri maktabining ta'sirini ko'rish mumkin. Abdulla Qodiriy XX asr o'zbek adabiyotidagi eng yirik yozuvchidir. Chunki, u nasrning hamma janrlarida badiiy jihatdan yetuk bo'lgan asarlar yaratdi. Uning dastlabki asarlari ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan, xalqning zabun holatidan kuyub, millatni uyg'otishga da'vat etgan, fikrlashga chorlagan bo'lsa, hikoyalarida o'z xalqini savodli, madaniyatli bo'lish istagi barq urub turadi, "Obid lug'at"ni (1934) tuzishda ishtirok etgan. Abdulla Qodiriyning asarlari, jumladan romanlari jahon miqyosida tez tarqaldi. "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, rus, ozarbayjon, latish, litva, tatar, turkman, uyg'ur, qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, arab, italiyan, ingliz, turk va boshqa tillarga tarjima qilinib qayta-qayta nashr etib kelinmoqda. Abdulla Qodiriy "Amir Umarxonning kanizi", "Namoz o'g'ri" kabi romanlar yaratish orzusida bo'lgan. "Amir Umarxonning kanizi", "Namoz o'g'ri" romanlari uchun materiallar ham yiqqan. Biroq mustabid tuzum adibning bu orzularini ruyobga chiqarishga imkon bermadi.

Abdulla Qodiriy 1926-yilda "Mushtum"da bosilgan "Yig'indi gaplar" maqolasi tufayli qisqa muddat hibsga olingan. Bu maqola hajv tariqasida yozilgan bo'lib, unda bir necha kishilar, arbob kimsalar haziltomuz tanqid qilib o'tiladi. Hajviyasidagi tanqidiy mulohazalari uchun "aksilinqilobiy harakat qilinganlik" deb ayblanib hibsga olingan. Adibning tarixiy romanlari millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yozilganligi ham hukmron mafkuraga zid asarlar bo'lib chiqdi. Yaratilgan bu romanlar sho'ro davri siyosati uchun zararli kitoblar sifatida bot-bot qoralandi. 30-yillarning o'rtalariga kelib, bu mash'um ulfatlar (kompaniya) avjiga chiqdi.

Yozuvchi birinchi navbatda eng ko'p to'qnashadigan mavzu bu "insonning ichki tabiati" hisoblanadi. Shu bilan birga yozuvchi kishilarni o'zlari qanday bo'lsa, shunday tasvirlash kerak, birinchi navbatda har bir harakatning motiv sababi va ayniqsa barcha odamlarga xos bo'lgan undovlar bilan qiziqishini ta'kidlash lozim. Abdulla Qodiriyning fikricha barcha tabaqadagi odamlar bir xil, yuqori tabaqa vakillari "o'z harakatlarining asl sabablarini konventsiya, yolg'on, ikkiyuzlamachilik va da'vogarlik bilan yashirishni bilishlari" bilan farqlanadi. Yozuvchining e'tibori butun inson tabiatiga xos bo'lgan, lekin ma'lum ijtimoiy qatlamlar va shaxslarga xos bo'lgan turli xil shakllarda namoyon bo'ladigan narsalarga qaratilgan.

O'zbek adabiyoti milliy asarlar, jumladan o'zbek romanlarini o'z ichiga olgan to'plamdir. O'zbek romanchiligi eng yaxshi an'analarni o'zida mujassam etgan va zamon bilan hamnafas rivojlanib bormoqda. O'zbek romanlari ham boshqa millat vakillari singari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lganini ulug' adib Abdulla Qodiriyning ikki romanining qiyosiy tavsifi ham tasdiqlaydi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, Abdulla Qodiriyning navbatdagi "Mehrobdan chayon" romani "O'tgan kunlar" romanining tarixiy va mantiqiy davomi bo'lib xizmat qiladi, unda ijtimoiy-madaniy hayotning turmushi, urfodatlari, xon davri aks ettirilgan. Albatta, badiiy adabiyotda o'sha davr madaniy, adabiy-estetik tafakkurining, ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy jazosining ta'siri juda katta. Bu ta'sir "Mehrobdan chayon" romanining badiiy-g'oyaviy tuzilishida, ayniqsa, sinfiy xarakterda yaqqol seziladi.

Roman muallifi ma'lum darajada o'sha davr sinfining dogmalariga moyil, ammo bu romanda uning sun'iy tasavvuri emas, balki tarixning bir qismi sifatida ko'rsatilgan. Shu bilan birga, u umuminsoniy tushunchalar va tarbiya me'yorlarini boshqaradi. Jamiyatning sinf va qatlamlariga nisbatan bunday munosabat o'n to'qqizinchi asr jahon romanizmining yirik namoyandalari (Honor de Balzak, Emilya Zola, Lev Nikolayevich Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy)larning epik asarlarida juda yaqqol ifodalangan. "O'tgan kunlar" romanidan keyin "Mehrobdan chayon" romani romanizmning yangi milliy maktabi bo'lib, unda faqat o'zbeklarga xos badiiy odat paydo bo'ldi.

Bu badiiy tamoyil birinchi milliy romanda juda muvaffaqiyatli qo'llanilgan. Ijobiy va salbiy obrazlar yaratish uchun muallif Sharq adabiy-badiiy an'alarini, ularning tajribasini o'rganib, ularni romanning buyuk epik obrazlari tarkibiga kiritgan. Buni Abdulla Qodiriyning sanab o'tilgan ikki tarixiy romanini qiyoslashda ham ko'rish mumkin.

“Mehrobdan chayon” va “O'tgan kunlar” (Anvar, Ra'no, Otabek, Kumush) romanlarining bosh qahramonlari bir-biriga juda o'xshash. Ular hatto deyarli bir xil ko'rinishga ega. Bunday o'xshashlik ichki dunyoda (xarakter, ma'naviyat, psixologiya) ham kuzatiladi. Ular Otabek aytganidek, har tomonlama komil inson namunasidir. Yozuvchi “Mehrobdan chayon”, “O'tkan kunlar” romanlarida erkak qahramonlar portretini tasvirlashda “muhtasham va ko'zga tashlanadigan”, “barvasta”, “mag'rur”, “qora ko'z” kabi qolipli shtrixlardan foydalangan.

Romanning voqea-hodisa rivoji jarayonida yuqoridagi portret boshqa personajlarga xos xususiyatlar bilan to'ldiriladi: “ohunikidek go'zal ko'zlar”, “qizil olmadek qip-qizil yuz”, “ko'kalamzorlarning ilk nihollari” va boshqalar. Qahramonlarning bunday tavsifi birinchi marta Otabek obrazida “O'tgan kunlar”da qo'llangan.

Abdulla Qodiriydan “menga qo'yilgan ayblarni boshdan oyoq rad etaman. Haqiqat yo'lida hech qanday jazodan, qiynoqdan qo'rqmayman. Agar otmoqchi bo'lsalar, ko'kragimni kerib turaman...” deb aytgan so'zlaridan ham uning asarlarining mohiyati qanday bo'lganini bilish qiyin emas. Uning asarlari yigirmanchi syezddan so'ng, 1956-yildan boshlab yangidan nashr etila bordi. 1990-yilda Respublika prezidenti Farmoni bilan Abdulla Qodiriy nomidagi Respublika Davlat mukofoti ta'sis etildi. 1991-yilda esa Abdulla Qodiriyga Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi. Hozirgi kunda esa bir qator ko'chalar, bog'lar, maktablar, kutubxona, mahalla va oliy bilimgothlar uning tabarruk nomi bilan yuritiladi. Uning nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat oliy bilimgothida eng bilimdon talabalarga Abdulla Qodiriy nomidagi davlat stipendiyasi beriladi.

Bugungi kunda hozirgi o'zbek nasri mazmun va janrlar jihatidan nihoyatda yuksaklikka erishdi. Bularning hammasida Abdulla Qodiriy ijodining ahamiyati, Qodiriy nasri maktabining ta'sirini ko'rish mumkin. Abdulla Qodiriy XX asr o'zbek adabiyotidagi eng yirik yozuvchidir. Chunki, u nasrning hamma janrlarida badiiy jihatdan yetuk bo'lgan asarlar yaratdi. Uning dastlabki asarlari ma'rifatparvarlik ruhida yozilgan, jadidchilik g'oyalari bilan sug'orilgan, xalqning zabun holatidan kuyub, millatni uyg'otishga da'vat etgan, fikrlashga chorlagan bo'lsa, hikoyalarida o'z xalqini savodli, madaniyatli bo'lish istagi barq urub turadi, “Obid ketmon” qissasida esa asar qahramoni orqali o'zbek xalqining mehnat, dehqonchilik bobida yetukligi timsolini yaratadi. Yozuvchining romanlari millat taqdiri, birligi, yurt qayg'usi, mustaqilligi, shaxs erki, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yo'g'rilgan. Bundan tashqari uning o'sha davr matbuotidagi ishtiroki o'zbek matbuotining shakllanishi va rivojlanishida nihoyatda katta rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Behbudiy M. Padarkush. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999.
2. Fitrat A. Bayonoti sayyohi hindi. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Fitrat A. Munozara. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
4. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
5. Lutfulla Olimiy. Hajviyot maydonida. - Farg'ona. 1924 yil. 181-son.
6. Qo'shjonov M. Abdulla Qodiriy mahorati. – Toshkent: Fan, 1988.
7. Qodiriy A. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
8. Qodiriy A. Obid ketmon. – Toshkent: Sharq, 2016.
9. Qodiriy A. O'tkan kunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2018.
10. Qodiriy A. Diyori bakr. - T.: Yangi asr avlodi, 2007.

11. Qodiriy A. Kichik asarlar. T., 1996.
12. Qodiriy H. Otam haqida. – T.: Gʻ. Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1983.
13. Qosimov B. va boshqalar. Milliy uygʻonish davri adabiyoti. - T.: Maʼnaviyat, 2004.
14. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
15. Rasulov A. Oʻzbek romanchiligi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2005.